




**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI
2023- YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Tel.: 76-225-65-76

www.surxonstat.uz


Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1780,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 47,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	38,2	60,6	22,7
Neft, ming t.	21,7	18,7	-3,0



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	7,9	6,3	-1,6
Chaqiq tosh, ming t.	19,5	0,0	-19,5

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1654,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,0 % ini tashkil etdi.


2022- yil yanvar-mart

89,8 %

2023- yil yanvar-mart




93,0%






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,0% (19,5 %) va quyi texnologiyalisi – 72,7 % (70,6 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,8 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,6 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 53,4 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,9 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,4 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 208,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,4 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 28,8 % ga kamaygan), 1,3 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (24,9 % ga kamaygan), 0,7 ming tonna lint (26,8 % ga kamaygan), 11,8 ming tonna neft bitumi (27,2 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	6,2	4,4	-1,8
Paxta tiviti (lint), ming t.	1,1	0,7	-0,4
Neft bitumi, ming t.	16,2	11,8	-4,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	26,6	17,9	-8,7
Saryog', t.	0,7	0,1	-0,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,1	1,0	-0,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 13,6 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa, 116,7 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 9,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 42,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,1 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 126,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 15,2 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 270,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 59,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart- oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 232,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 47,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 130,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 49,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 100,5 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 886,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 84,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 116,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 63,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 134,7 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 188,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 118,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,6 % ni, fizik hajm indeksi 93,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 99,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 220,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 17,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 55,8 % ga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	30,1	16,8	-13,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	15,7	10,4	-5,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	0,7	2,1	1,4
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	5,9	7,5	1,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 22,6 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 mlrd. so'm shuningdek, 7,5 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 480,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-mart

55,1 %

2023- yil
yanvar-mart

49,0 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-mart

44,9 %

2023- yil
yanvar-mart


51,0 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,4 % (2022- yil yanvar-mart oylarida 0,5 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani 19,6 % ni, 14,5 % Denov tumaniga to'g'ri kelib Jarqo'rg'on 14,5 % ni tashkil etdi.



Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (116,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Boysun (176,6 %) , Uzun (162,4 %) va Denov (137,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushni Sho'rchi tumani 19,1 % ni, Jarqo'rg'on tumani 14,5 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sherobod tumani 14,8 % ni, Jarqo'rg'on tuman 11,7 % ni, Sho'rchi tumani 11,1 % ni, shuningdek, Termiz shahri esa 12,8 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati

2021- yil

1166,6 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

1269,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart

2023- yil

1780,2 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-mart



2021- yil

106,9 %

2021- yil yanvar-mart

2022- yil


103,8 %

2022- yil yanvar-mart

2023- yil

103,0 %

2023- yil yanvar-mart




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Sherobod (1273,4 ming so'm), Termiz (1195,2 ming so'm) hamda Jarqo'rg'on (890,8 ming so'm) tumanlarida va Termiz shahri (1158,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (632,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo viloyati

2021- yil

434,2 ming so'm

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

461,6 ming so'm

2022- yil yanvar-mart

2023- yil

632,6 ming so'm

2023- yil yanvar-mart



01

2021- yil

104,8 %

2021- yil yanvar-mart

02

2022- yil

101,4 %

2022- yil yanvar-mart

03

2023- yil

100,7 %

2023- yil yanvar-mart




o'sish sur'ati

ming so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 106,8 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 152,3 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 331,4 ming so'mni, Termiz tumanida – 187,8 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 138,3 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati




o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 362,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,5 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2021- yil

409,0 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

475,2 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-mart

2023- yil

764,5 mlrd. soʻm

2023- yil yanvar-mart



2021- yil

36,1 %

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

37,4 %

2022- yil yanvar-mart


2023- yil

42,9 %

2023- yil yanvar-mart

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 3820 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 770 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,2 % i) Termiz shahriga, 397 tasi (10,4 %) Denov tumaniga, 265 tasi (6,9 %) Sariosiyo tumaniga, 262 tasi (6,9 %) Sho'rchi tumaniga va 254 tasi (6,6 %) Qumqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan





Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 31 ta loyiha bo‘yicha 24,6 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 176 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlikda	20	31
Korxonalar soni, birlikda	12	16
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	13,6	24,6
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari	-	-
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlikda	27	176